
YANGI SARDORLAR SAYLANDI

Bugun tumanimizdagi "Yoshlar markazi"da Sardorlar Kengashi saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda umumiy o'rta ta'lim maktablaridan sardorlik uchun o'z nomzodlarini qo'ygan o'quvchilar qatnashdilar. Har bir sardor "Agar men sardor bo'lsam" mavzusida o'z loyihalarini berishdi.



Mazkur loyihalarda har bir yoshning o'z dunyoqarashi, ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqeya-hodisalarga munosabati, tengdoshlarining vaqtini mazmunli o'tkazish borasida o'rtaga tashlagan takliflari aks etdi.



~~Saylangan sardorlarga kelgusidagi faoliyatini yanada jonlantirish uchun tuman Kengashi tomonidan planshet taqdim etildi.~~ 3/6



~~O'ylaymizki, bugun saylangan sardorlar vazifalarini sidqiddan ado etib, mamlakat ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar. Eng muhimi, yoshlar bilan yangicha yondashuvlar asosida ishlab, O'zbekistondagi har bir yosh yigit-qizning ko'ngliga yo'l topishga harakat qiladilar.~~



